

RANGSHUNOSLIK VA UNING NAQQOSHLIKDA TUTGAN O’RNI

M. N. Ikromova

*Qo`qon DPI “Tasviriy san’at va muxandislik grafikasi”
ta’lim yo`nalishi 3-kurs talabasi*

ABSTRACT	KEYWORDS
Maqolada badiiy naqqoshlikda qo’llaniladigan bo’yoq turlari va ularning o’ziga xos xususiyatlari, rang turlari, rang kaloriti, ranglarning hamohangliklari hamda ularni naqqoshlik san’atidagi ahamiyati yoritib berilgan. Аннотация. В статье описаны виды красок, применяемых в художественной живописи и их специфические характеристики, цветовые оттенки, цветовая калориметрия, цветовые гармонии и их значение в живописном искусстве.	rangshunoslik, naqqoshlik, kaloriti, naqsh kompozitsiyalari, rang kaloriti. цветоведение, живопись, калориметрия, узорные композиции, цветовая калориметрия.

Badiiy naqqoshlikda naqsh elementlari, bezaklar va turli shakllar, kompozitsiya qonuniyatlaridan tashqari uni bo’yashda qo’llaniladigan bo’yoq turlari va ularning o’ziga xos xususiyatlari, rang turlari, rang kaloriti, ranglarning hamohangliklari va shu kabilar ham muhim ahamiyatga egadir. Agarda biz xalq hunarmand ustalari tomonidan ishlangan amaliy san’at namunalarini kuzatadigan bo’lsak, ularning u yoki bu rang turlari ta’siriga, ya’ni rang kaloritiga bo’ysundirilganligini ko’ramiz. Shunga ko’ra jigar rang, havo rang, yashil rang va shu kabi ranglar muhitiga o’ralgan naqsh kompozitsiyalari yaratiladi.

Badiiy naqqoshlikda ham suv va moybo’yoqlardan keng ko’lamda foydalaniladi. Bu esa o’z navbatida to’g’arak qatnashchilaridan rangshunoslik borasida ham kerakli bilim va amaliy malakalarga ega bo’lishlari lozimligini taqozo etadi.

Atrof-muhitdagi narsalar tushayotgan yoruo’lik ta’siri ostida o’zlarining rang tuslarini tez-tez o’zgartirib turadi. Masalan, quyosh nuri yon tomondan yoritib turgan maysalarning rangi sarqish-yashil ko’rinishda bo’lsa, xuddi shu maysaning soyada turganlari biroz to’o’roq yashil rangda ko’rinadi. Naqqoshlikda ham ranglarning ana shu hususiyatlarini hisobga olgan holda ish ko’rish lozim bo’ladi. Agarda ishlanadigan naqsh yorug’roq joyga qo’yiladigan yoki ishlanadigan bo’lsa, rang tuslarini biroz to’qroq olish mumkin. Aksincha, bir oz yoruo’lik nurlari kamroq tushadigan erlarga joylashtiriladigan bo’lsa yorug’roq ko’rinishdagi rang tuslaridan foydalaniladi.

Tayyor naqsh namunalarini bo'yashda bir rangning bir necha xil turlari qo'llaniladi. Bunda oq bo'yoq asosiy o'rinni egallaydi. Akvarel bo'yoqlari bilan qog'ozga ishlangan naqshlarni ranglayotganda esa suv - rang tusini ochlashtiruvchi vosita sifatida kata ahamiyatga egadir.

Shuni esda tutish lozimki, ayrim bo'yoqlarni bir-birlari bilan aralashtirishda ba'zi bir extiyot choralari ko'rish lozim bo'ladi. Chunki, to'q rang tusiga ega bo'lgan bo'yoq tarkibiga boshqa rang aralashtirilsa uning tusi ham to'qlashadi. Bu esa o'z navbatida rang tusini tiniqlik darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, moy bo'yoqlarida ishlangan naqshlarning turlari keyinchalik to'qlashib, qorayib ketishga moyil bo'ladi. Agarda naqshlar uzoq vaqt saqlash uchun mo'ljallangan bo'lsa, ularni iloji boricha ochiq rang turlarida bo'yash tavsiya etiladi. Umuman olganda naqsh sirtiga iloji boricha quyosh nuri tushmaydigan bo'lishi lozim. Shuningdek, nam havo yoki suv tegishi, ham naqshning uzoq muddatga saqlanishi uchun jiddiy to'siq bo'lishi mumkin. Umuman olganda badiiy naqqoshlikda ana shu sharoitlarni hisobga olish kerak bo'ladi.

Badiiy naqqoshlikda quyidagi ranglar va ularning turlaridan keng ko'lamda foydalaniladi:

Zangori ranglar va ularning turlari (och zangori, zangori, to'q zangori, och havo rang, havo rang, to'q havo rang, moviy, ko'k)

Sariq ranglar va ularning turlari (och sariq, sariq, to'q sariq, sarqish, limonli sariq, kadmiyli sariq, sarqish zarqaldoq)

qizil ranglar va ularning turlari (och qizil, qizil, to'q qizil, och va to'q qirmizi, qirmizi, alvon rang, och va to'q zarqaldoq, zarqaldoq ranglar va boshqalar)

Yashil rang va ularning turlari (och va to'q yashil, yashil, sarqish yashil, to'tyoyi (to'taki), zaynovi (chiroyli o'tkir rang yashil), zumrad rang, ko'kish yashil)

Binafsha rang va ularning turlari (och va to'q binafsha, binafsha, siyoh rang, ko'kish binafsha, qizqish binafsha va shu kabilar)

Jigar ranglar va luraning turlari (och va to'q jigar rang, jigar rang, qizo'sh va sarqish jigar rang, qoramtir jigar rang va boshqalar)

Qora rang va ularning turlari (och va to'q qora, qora, och va to'q kul rang, kul rang va shu kabilar)

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan ranglar va ularning turlari ko'pincha badiiy naqsh kaloritini belgilashda yuqori o'rinda turadi. Shunga ko'ra rang muhiti biror bir aniq rang tusi kaloritiga bo'ysundiriladi. Masalan, jigar rang, havo rang, sarg'ish yoki qizg'ish ranglar muhitida ishlangan naqsh kompozitsiyalari shular jumlasiga kiradi.

Naqshga bo'yoq yaxshi mo'yqalamlar bilan surtiladi. Mo'yqalamlarning ishga yaroo'lisi quyidagicha tanlab olinadi: uni toza suvga solib silkitiladi, agar mo'yqalamning uchi birikib ingichka holga kelsa, u ishga yaroo'li, to'zib tursa, yaroqsizdir.

Mo'yqalamlar bo'rsiq, suvsar, olmaxon kabi xayvonlar yungidan tayyorlanadi. Biz bo'rsiq yungidan yasalgan 1 dan 10 gacha raqamli mo'yqalamlardan foydalanishni tavsiya etamiz.

1.Siyoh mo'yqalam - 1,2,3 raqamli mo'yqalamlar bo'lib, axta yordamida Naqsh tushirilgandan so'ng ularni yurgizib chiqish va gullar tortishda ishlatiladi. 4,5 raqamli mo'yqalamlar esa band va marqo'lalarni ranglashda qo'llaniladi.

2.Obi mo'yqalam -6,7 raqamli mo'yqalamlar bo'lib, ular barg, gul va kichik yuzlarni ranglash hamda naqsh kompozitsiyalarini chekkalarini (ramkalarni) yurgizib chiqish uchun ishlatiladi.

3.Mola mo'yqalamlari - 8,9,10 raqamli mo'yqalamlar bo'lib, katta barg, band, gullar va naqshlar tagiga (katta zamin, kichik zaminga) rang berish uchun foydalaniladi.

Naqqoshlikda ishlatiladigan bo'yoq turlari quyidagilardan iborat: quruq bo'yoq, guash, akvarel, emulsiya, bo'yoq, mineral bo'yoq, moybo'yoq, tempera bo'yoqlari. Naqqoshlik mashqulotlarida eng ko'p qo'llaniladigan bo'yoq guashdir. Guash kichik idishchalarda yoki alohida bankalarda bo'lib, u suvda yaxshi eriydi. Guashning yana bir qulayligi shundaki, u bilan turli rangdagi qog'ozlar va yog'ochlarni ham bo'yash, bir rangni ikkinchi rang bilan aralashtirib, uchinchi bir rang hosil qilish mumkin.

Har bir bo'yoq alohida stakan yoki kichik idishchada tayyorlanadi, alohida tayoqcha bilan aralashtiriladi.

Bo'yoq zarur suyuqlikda va tiniqlikda tayyorlanishi lozim. Bunda oq bo'yoqni boshqa bo'yoqlar bilan aralashtirib, kerakli rangni topa bilish muhim ahamiyatga ega. Yog'och buyumlarni naqshlash uchun quyidagi asbob-uskuna va materiallar kerak: yog'och, belchalar, jilvir qog'oz, bo'r, pista ko'mir, sinka, doka, xitoy qog'ozi (kalka), nina, alif, elim, quruq kukunli bo'yoqlar, lak, 1-20 nomerli mo'yqalamlar, idishchalar va boshqalar. Naqsh muallimi o'quvchilarga bu asboblarni ishga tayyorlash va ulardan foydalanish yo'llarini o'rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Qosimov S.S. Naqqoshlik -- T.: «O'qituvchi», 1990.
2. Abdullaev N. San'at tarixi. 1t.-T.; «O'qituvchi», 1986.
3. Mirzaaxmedov M. Materiallarga badiiy ishlov berish. - T.; «O'qituvchi» 1986.
4. Manakova V.N. O'zbek xonadonining badiiy bezash madaniyati. - T.; G'. Gulom nomidagi «Adabiyot va san'at» nashriyoti, 1989.
5. Bulatov S.S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. -- T.: «Mehnat», 1991
6. Abdullaev N. San'at tarixi. -T.:, «San'at», 2001.